

MAKTAB DIREKTORLARINING BOSHQARUV KO'NIKMALARINI TA'LIMDAGI
O'ZGARISHLARGA MOSLASHTIRISH ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Siradjev Ilxom Toxirovich

*O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Moliya-iqtisod departamenti
direktori*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalarini ta'limdagi o'zgarishlarga moslashtirish asosida rivojlantirishning kompetensiyaviy talablar tarkibi, ta'lim tizimining samarali faoliyatini ta'minlash va zamonaviy pedagogik, iqtisodiy va ijtimoiy talablarga moslashtiri to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'z: Ta'limdagi o'zgarishlarga moslashtirish, kommunikatsiya, resurs, transformatsiya, xaos, tartibsizlik, faol yopiq tizimlar

Maktab ta'limi tizimining sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish uchun ta'lim jarayoniga zamonaviy boshqaruv usullarini joriy qilish zarur. Bu borada maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalari muhim rol o'ynaydi, chunki ular ta'lim muassasasining muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlaydigan asosiy shaxs hisoblanadi. Maktab direktorining boshqaruv ko'nikmalari nafaqat ta'lim jarayonini boshqarishda, balki o'quvchilarning natijalari va o'qituvchilarning professional rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalarini zamonaviy ta'lim o'zgarishlariga moslashtirish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin. Maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalarini ta'limdagi o'zgarishlarga moslashtirish asosida takomillashtirishning kompetensiyaviy talablar tarkibi, ta'lim tizimining samarali faoliyatini ta'minlash va zamonaviy pedagogik, iqtisodiy va ijtimoiy talablarga moslashish uchun muhimdir. Kompetensiyalar, direktorning maktabni boshqarishda samarali faoliyat ko'rsatishi va barcha tizim elementlarini integratsiyalashga qodir bo'lishi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar, bilimlar va mahoratini belgilaydi. Ta'limdagi o'zgarishlarga moslashtirish, tizimning barcha komponentlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni hisobga olgan holda, maktab direktoriga har tomonlama rivojlanish va yuqori natijalarga erishish uchun yordam beradi. talablar asosiy tarkibda shakllanishi mumkin.

Maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalarini ta'limdagi o'zgarishlarga moslashtirish asosida rivojlantirishning kompetensiyaviy talablarini quyidagicha tahlilini keltiramiz:

Ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar, shuningdek, yangi ta'lim texnologiyalarining joriy qilinishi, metodologik yangiliklar va ta'limda global trendlarning ta'siri boshqaruv tizimining yangi yondashuvlarini talab qiladi. Maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalari shu o'zgarishlarga moslashgan bo'lishi zarur. Bugungi kunda ta'lim tizimi nafaqat o'qitish, balki o'quvchilarni rivojlantirish, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish va ta'lim jarayonida kreativ yondashuvlarni qo'llashni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, o'qituvchilarni rag'batlantirish, ularning professional ko'nikmalarini oshirish va jamoaviy ishni rivojlantirish zarur.

Maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy jihatlari:

Liderlik va motivatsiya: Maktab direktori samarali lider bo'lishi kerak, chunki u nafaqat ta'lim jarayonini boshqaradi, balki o'qituvchilarni va o'quvchilarni ham motivatsiya qiladi. Boshqaruv ko'nikmalariga yirik jamoani boshqarish, qarorlar qabul qilish va o'quvchilarning, o'qituvchilarning ehtiyojlariga moslashish kiradi.

Innovatsion boshqaruv: Maktab direktorining yangi ta'lim texnologiyalarini joriy qilish va zamonaviy ta'lim metodlarini qo'llash bo'yicha ko'nikmalari ham juda muhim. Bu o'quvchilarga yangi bilimlarni o'zlashtirishda yordam beradi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Ijtimoiy va emosional intellekt: Maktab direktorlarining ijtimoiy va emosional intellekti ta'lim muhitini yaratishda va o'quvchilar, o'qituvchilar bilan samarali aloqalarni o'rnatishda yordam beradi. Bu ko'nikmalar ta'limda yaxshi ijtimoiy muhit yaratishga yordam beradi.

Qarorlar qabul qilish va mas'uliyat: Maktab direktorining qarorlar qabul qilishdagi aniqligi va mas'uliyatli yondashuvi uning boshqaruv samaradorligini ta'minlaydi. Ta'limdagi o'zgarishlarga tezda moslashish va dolzarb masalalarga javob berish zarur.

Maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari:

Ta'limni innovatsiyalash: Maktab direktorlarining innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilishga tayyor bo'lishini ta'minlash. Buning uchun maxsus treninglar va seminarlar o'tkazish, boshqaruv ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadbirlar tashkil etish zarur.

Ko'p yo'nalishli o'quv dasturlari: Direktorlar uchun ta'lim tizimidagi yangiliklar va o'zgarishlarni o'rganish, ulardan samarali foydalanishni o'rgatish bo'yicha maxsus dasturlarni yaratish. Bu dasturlar direktorlarning boshqaruv ko'nikmalarini takomillashtirishga yordam beradi.

Professional tarmoq yaratish: Maktab direktorlarini bir-biri bilan tajriba almashish va o'zaro maslahatlashish imkoniyatlari bilan ta'minlash. Buning uchun har xil seminarlar, forumlar va tarmoq yaratish imkoniyatlarini tashkil etish lozim.

Maqsadli boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish: Maktab direktorining o'z boshqaruv strategiyasini ishlab chiqishi va uni amalga oshirishda ta'limdagi o'zgarishlarga mos keladigan reja va yo'nalishlarni belgilash. Bu o'zgarishlar natijasida direktorlar yangiliklarga qarshi tura olish va muammolarga javob bera olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ta'limdagi innovatsiyalar va o'zgarishlarga moslashish kompetensiyalari ta'limdagi o'zgarishlarga moslashtirish asosida maktab direktori ta'limdagi innovatsiyalar va zamonaviy ta'lim metodlariga moslashishga qobiliyatli bo'lishi kerak. Bu kompetensiya, direktorning yangicha fikrlash, pedagogik tajribalarni integratsiyalash, yangi texnologiyalar va pedagogik usullarni joriy qilish, shuningdek, o'zgarishlarga tez moslashish qobiliyatini o'z ichiga oladi. **Strategik fikrlash va tizimli tahlil qobiliyati** tashkilotning barcha bo'limlari va faoliyat yo'nalishlarini **bir butun tizim** sifatida qaraladi. Shuningdek, vaqtinchalik emas, **uzoq muddatli maqsadlarni** belgilay olish va ularga erishish uchun aniq strategiya ishlab chiqish murrakab holatlarda **tizimli tahlil** olib borish va oqilona qaror qabul qilish imkoniyatini yaratadi. **Innovatsion rahbarlik kompetensiyasi esa**, yangicha yondashuvlarni qabul qilish va joriy etish qobiliyati bo'lib, tashabbuskorlik va kreativ fikrlashni rag'batlantirishga qaratilgan. Maktabdagi yangilanish jarayonlarini **yetakchilik** asosida tashkil etish hamda **muloqot va hamkorlik kompetensiyasi**- o'qituvchilar, o'quvchilar va otaonalar bilan **samarali muloqot** olib borish;

jamo'a a'zolarini **o'zaro hamkorlikka** jalb etish;

konfliktlarni konstruktiv yo'l bilan hal etish;

o'zgarishlarga moslashish (adaptivlik). Muhitdagi o'zgarishlarni sezish va unga **tez moslashishni** o'z ichiga qamrab oladi. Yangi texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarni qabul qilishda maktabning tashqi muhit bilan aloqasini samarali tashkil etish va **emosional intellekt va liderlik qobiliyatlari** muhim o'rin tutadi.

His-tuyg'ularni boshqarish, boshqalarning ehtiyoj va kayfiyatini to'g'ri anglash **ilhomlantirish va motivatsiyalash** orqali xodimlar salohiyatini aniqlash va rivojlantirish bo'yicha interaktiv ish olib borish, o'quv-tarbiya jarayonini **samarali monitoring** qilishga asos bo'ladi. Shu bilsn birga, ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish orqali ta'lim sifatini oshiriladi. Maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalarini ta'limdagi o'zgarishlarga moslashtirish asosida rivojlantirishning kompetensiyaviy talablar tarkibi maktabning samarali va barqaror faoliyatini ta'minlash uchun muhimdir.

Ochiq tizim maktab tashqi muhit bilan faol aloqada: - davlat siyosati, texnologiyalar, jamiyat ehtiyojlari va boshqa maktablar bilan muloqot qilishni tashkil etadi. Tarkibiy qismlarning o'zaro ta'siri o'quvchilar, ota-onalar va boshqaruvchilar bir-biri bilan uzviy aloqada, qarorlar biryoqlama emas, balki ko'p tomonlama fikr almashinuvi asosida qabul qilinadi. O'z-o'zini boshqarish va rivojlanishlar bir bo'g'in o'zining mas'uliyatini anglab, tashabbus ko'rsatishga undaladi. Bu esa tizimning o'sishiga va ichki faollikning ortishiga hamda jamoada sog'lom raqobat muhitini shakllanishiga imkon beradi. Ayrim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatidagi tartibsizlik motivatsion va kollabratiy, individual yondashuvlar orqali bartaraf etiladi.

Xususan, xaosdan tartibga o'tish dastlabki beqarorlik (masalan, yangi tizimga o'tish) ta'limdagi o'zgarishlarga moslashtirish orqali ijobiy o'zgarishlarga olib keladi va tartib hosil bo'ladi. Bu vaziyatda maktab direktori– katalizator jarayonlarni boshqaruvchisi emas, balki uyg'otuvchi, motivatsiya beruvchi shaxs sifatida ishtirok etadi va u tizim ichidagi energiyani to'g'ri yo'naltiradi. Mazkur kompetensiyalarga ega bo'lish direktorning boshqaruv faoliyatini samarali bo'lishi, pedagogik jarayonlarni integratsiyalash va resurslarni samarali boshqarishga yo'naltiradi. Har bir direktorning ushbu kompetensiyalarga ega bo'lishi, maktabning umumiy rivojlanishini va boshqaruv samaradorligi uchun muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligiga erishishda rahbar o'rinbosarlarining mas'uliyatini oshirish, maktab direktori va rahbar o'rinbosarining birgalikda ishlash mexanizmini optimallashtirish hamda maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatidagi xaosdan tartib holatiga o'tish mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-mart "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-51-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabr "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-may "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son Farmoni
4. M.Ergasheva Ta'lim taraqqiyoti: Sinergetik tahlil. monografiya. 2022-yil b-194.
5. M.Tajiboev. Taraqqiyot strategiyasining istiqbollari: Ta'limdagi o'zgarishlarga moslashtirish. Maqola. 2022-yil b-5.
6. M.Abdullaeva Sinergetikaning tabiiy-ilmiy va falsafiy muammolari ilmiy-nazariy to'plam. 2009-yil b-207.